XORAZM VILOYATIDA QISHLOQ TURIZMINING O‘RNI VA UNING IQTISODIYOTIGA TA’SIRI

Jumaniyazova Ozodaxon Zaripboy qizi
BuxDU “Turizm va mehmonxona faoliyati” ixtisosligi tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18629131

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qishloq hududlarda qishloq turizmining o‘rni va mohiyati ochib berilgan bo‘lib, Xorazm viloyatida bugungi kunda qishloq turizmining ahamiyati va uni hudud qishloqlarida rivojlantirish usullari tahlil qilingan.*

Аннотация*. В данной статье раскрыта роль и сущность сельского туризма в сельской местности, проанализировано значение сельского туризма в Хорезмской области сегодня и пути его развития в сельской местности.*

Abstract. *This article reveals the role and essence of rural tourism in rural areas and analyzes the importance of rural tourism in the Khorezm region today and the methods of its development in the villages of the region.*

Kalit so‘zlar: *Turizm, turizm iqtisodiyoti, agroturizm, qishloq turizmi, qishloq hududlari.*

Ключевые слова: *Туризм, экономика туризма, агротуризм, сельский туризм, сельские районы.*

Key words: *Tourism, tourism economy, agrotourism, rural tourism, rural areas.*

Kirish. Jahonda turizm iqtisodiy faoliyatning rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizmning jahon xo‘jaligi, shuningdek alohida davlatlar va mintaqalar iqtisodiyotiga ta’siri doimiy o‘sish tendensiyaga ega bo‘lib, boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, turizm xizmatlarining diversifikatsiyalashishi aholining maxsus ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilganligida namoyon bo‘ladi. Jumladan, barqaror iqtisodiyot sharoitida qishloq turizmining yuqori sur’atlar bilan rivojlanishi kuzatilmoqda. “Dunyo aholisining 45,3 foizi qishloq joylarida istiqomat qiladi va tabiiy-ekologik xilma-xillikga boy, qishloq xo‘jaligi tarixan milliy an’analar asosida rivojlangan hududlarda turistlarning 35-45%i qishloq joylarda dam olishni afzal ko‘radi” [1]. Shu jihatdan ham bugungi kunda qishloq turizmini rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari va istiqbolli yo‘nalishlarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish maqsadida yangi qarorlar va farmonlar, maqsadli dasturlar qabul qilinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-394-sonli “2024-2026-yillarda xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida [2] hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2953 sonli “2017-2021-yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi”da [3] viloyatning qishloq hududlarida turizmni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilgan. Viloyatda qishloq turizmini rivojlantirishda bir qancha qilishi zarur bo`lgan masalalar mavjud. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, bugungi kunda Xorazm viloyatida qishloq turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganish va tadqiq qilish, tadqiqotlar natijasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Jahonda qishloq turizmining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalarini aniqlash, ayniqsa, qishloq resurslaridan samarali foydalanish, hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada hududlarda barqaror rivojlantirishning iqtisodiy yo‘nalishlari va uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish, qishloq resurslaridan samarali foydalanish, turistik mahsulotni diversifikatsiyalash, qishloqlarda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, qishloqlar turistik salohiyatini baholash usullarini takomillashtirish, qishloqlarda turizm obyektlarni yangi raqamli texnologiyalar asosida restavratsiya qilish va hududlarda turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, davlat xususiy sherikchiligini jalb qilish, “turizm qishloq”larida yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish hamda ekonometrik modellardan foydalangan holda turizm sohasini istiqboli ko‘rsatkichlarini bashoratlash kabi masalalarga alohida e’tibor berilmoqda [4].

Yangi O‘zbekistonda turizm sohasining zamonaviy talablar asosida barqarorligini ta’minlashda qishloq turizmini samarali rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. “Turizm - investitsiya, eksport, yangi ish o‘rinlari va kambag‘allikni qisqartirish degani. Shuning uchun har bir hududda bu sohaga jiddiy e’tibor qaratib, ko‘proq sayyohlarni jalb etish kerak” [5]. Bu qishloq hududlarining turizm infratuzilmasini modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Hozirgi zamon jahon xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, turizm iqtisodiyotning eng tez rivojlanib borayotgan va yuqori daromad keltirayotgan istiqbolli tarmog‘iga aylandi. Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, agar O‘zbekistonda turizmdan keladigan daromadlarni yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 12,5 foizga yetkazilsa, bu tarmoqda band bo‘lgan aholi soni ikki baravarga oshadi [6]. Oxirgi yillarda mamlakatimizda bu soha izchil rivojlanmoqda. Jumladan, 2022-yilda yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021-yilga nisbatan 3 baravar oshgan. 2022-yilda turistik xizmatlar eksporti ko‘rsatkichi 1,6 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilib, bu 2019-yilga nisbatan (1 mlrd. AQSH dollari) 26,1 foizga o‘sgan. Ichki turizm dasturlari doirasida esa 11 milliondan ortiq aholi sayohat qilgan [7].

Qadimdan keng dalalarda, tabiat qo‘ynida dam olish insonlarni o‘zgacha zavqlantirib kelgan. Buning natijasida mijozlarning xohishi inobatga olinib, sayyohlarga sarhil sut, dala hovli uzumzoridan olingan sharob, baliq ovlash, pichanzor va turli xil ko‘ngilochar detallar bilan to‘ldirilgan yuzlab dala uylari, kulbalar va qal’alarni tanlash imkoniyatini taqdim etuvchi turizm sanoatiga asos solindi. Hozirgi vaqtda Yevropada qishloq turizmi turli hisob-kitoblarga ko‘ra, turizm sanoati umumiy daromadining 10% dan 20% gacha qismini tashkil qiladi.

Qishloq turizmi tabiat majmualariga zarar keltirmaydigan, tabiatni muhofaza qilish va mahalliy aholi farovonligini oshirishga hissa qo‘shadigan shahar sharoitidan tashqari turizmning har qanday turini o‘z ichiga oladi [8]. Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligi sohasining ancha taraqqiy qilganligi, aksariyat aholining qishloq joylarida istiqomat qilishi, qishloq hududlarida yangi infratuzulmalarning paydo bo‘layotganligi, qishloq hayotining o‘ziga xos urf-odatlari va an’analari bevosita qishloq turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini katta ekanligidan dalolat beradi.

Tahlil va natijalar. Adabiyotlarda Xorazm viloyatining qishloq hududlari katta turistik salohiyotga ega ekanligi va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan (1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyati qishloq joylarining turistik salohiyoti [9]

№	Turizm turlari	Turistik resurlar	Foydalanish imkoniyatlari

1	Tarixiy-arxeologik turizm	Tarixiy obidalar, arxeologik qazilmalar	O‘rta
2	Etnografik turizm	An’anaviy mahalliy hayot tarzi, milliy folklor, turli marosimlar	Yuqori
3	Agroturizm	Qishloq bog‘lari, madaniy landshaftlar, qishloq xo‘jaligi ishlari, qishloqlarning o‘ziga xos ko‘rinishlari	Yuqori
4	Tanishuv sayohati	Turli xil o‘quv kurslari va seminarlar (musiqa, gastronomiya, kasb-hunar va boshqalar)	O‘rta
5	Ziyorat turizmi	Muqaddas qadamjolar, masjid va boshqa ziyoratgoh joylar	O‘rta
6	Ekologik turizm	Qishloqlarning tabiiy-geografik mintaqada joylashganligi	Yuqori
7	Sog‘lomlashtirish turizmi	Sog‘lomlashtirish turizmi, tuz konlari va boshqalar	O‘rta

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turubdiki, Xorazm viloyatida qishloq hududlarida agroturizm, etnografik va ekologik turizm resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yuqori hisoblanib, qishloq turizmini samarali rivojlantirishga o‘zining katta ta’sirini ko‘rsatadi. Viloyatning Xiva, Shovot, Bog‘ot va Yangibozor tumanlari o‘zining madaniy, tarixiy, agro va tabiiy salohiyotlari yuqoriligi orqali turistik qishloq maqomlarini olgan.

Xorazm viloyati turizm bozorida qishloq turizmini rivojlantirishning bugungi kundagi ustunlik ahamiyati, afzalligi, zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari o‘rganib chiqilib, SWOT-tahlil yordamida tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval

Xorazm viloyatida qishloq turizmini rivojlantirishning SWOT-tahlili [9]

Kuchli tomonlari	**Kuchsiz tomonlari**
✓ Viloyatning boy tabiiy-rekreatsion potensialga ega ekanligi; ✓ Viloyatda qishloq xo‘jaligi salohiyotining yuqoriligi;	✓ Qishloq turizmi bo‘yicha aniq turmarshrutlarni ishlab chiqilmaganligi; ✓ Qishloq joylarida turizm infratuzulmasini yetarli emasligi;
Imkoniyatlar	**Tahdidlar**
✓ Qishloq joylarida ijtimoiy infratuzulma obyektlari ko‘payadi; ✓ Qishloq joylarida kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanadi; ✓ Qo‘shimcha ishchi o‘rinlari ortadi;	✓ Raqobatchilarning ortishi; ✓ Ekologik vaziyatning yomonlashuvi; ✓ Qishloq joylarida turizm servisining pastligining turizm iqtisodiy bozoriga salbiy ta’siri;

Xorazm viloyatining qishloq hududlarida dam olish maskanlari, rekreatsion obyektlarni tashkil qilish, uzumzorlarga, mevali bog‘larga, botanika bog‘lariga, poliz ekinlari ekiladigan hududlarga maxsus turlarni tashkil qilish, qishloq xo‘jaligi mahsuloti yarmarkalari, turli xil mahalliy va xalqaro miqyosdagi festivallar o‘tkazish, har yili Xiva shahrida o‘tkaziladigan “Qovun”saylini qishloq va tumanlarning o‘zida ham tashkil etish, qishloq xo‘jalik fermerlarida qiziquvchi yoshlar uchun seminarlar o‘tkazish, mahsulotni yetishtirish jarayonida qatnashish jarayonlarini tashkil etish va eng muhumi qishloq hududlarda jahon standartlariga javob bera oladigan mehmon uylarini barpo

etish kabi amaliy tadbirlar viloyatda qishloq turizmining rivojlanishiga va uning hudud iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi. Xorazm viloyatida qishloq turizmining rivojlanishi hudud iqtisodiyoti va ijtimoiy hayoti uchun juda muhum hisoblanadi. Qishloq hududlarida qishloq turizm xizmatlarini rivojlantirish natijasida mahalliy byudjetga tushadigan soliq tushumlari oshadi, yangi ishchi o‘rinlari yaratiladi, qishloqlarning o‘ziga xos urf-odatlari va an’analari qayta tiklanadi va keng targ‘ib qilinadi, buning natijasida yangi turmarshrutlar yaratish orqali sayyohlar oqimining oshishiga erishiladi.

Xulosa. Mamlakatimiz qishloq hududlaridagi mavjud turistik salohiyatdan samarali foydalanish, turizm sohasi barqarorligini ta’minlash, uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga doir ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularda hozirgi paytdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasidagi o‘zgarishlar, samaradorligini baholash hamda innovatsion yondashuvlar asosida qishloq turizmini samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va usullarini takomillashtirish kabi masalalar yetarlicha o‘z aksini topmagan. Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash lozimki, Xorazm viloyatida nafaqat tarixiy-me’moriy, madaniy, ekologik turizmni rivojlantirish mumkin, balki mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlari, qishloqlardagi hayot tarzi, qishloq aholising an’anaviy urf-odatlari va qadriyatlari qishloq turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq qilish natijasida viloyat turizm salohiyotini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishish mumkun.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://www.unwto.org/news/unwto-invites-applications-for-best-tourism-villages-2022
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2024 — 2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 15.11.2024 yildagi PQ-394-son Qarori. https://lex.uz/ru/docs/-7223758?query=Qishloq
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2953 sonli “2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish” dasturi https://lex.uz/uz/docs/-4876081
4. Ostonov O‘.Y. Qishloq turizmini rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.Avtoreferat. Samarqand - 2024 file:///C:/Users/armtalaba/Downloads/53b894c2-7a90-46ac-9f23-b6b7fc021d9b.pdf
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezident raisligida mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi ma’ruzasi. 19 sentabr 2022 yil / Yangi O‘zbekiston. 2022 yil 19 sentabr.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari
7. https://wttc.org/Research/Economic-Impact rasmiy statistik ma’lumotlari
8. Shaakramov Q.Q., Shonazarova Sh.Xorazm viloyati qishloq turizmining mamlakat iqtisodiyotida o`rni va ahamiyati.International Journal of Science and TechnologyISSN 3030-3443 Volume 1, Issue 20, June. 2024 https://sciencetechnology.uz/index.php/s/article/view/687/671
9. Матякубов У.Р, Хоразм вилоятида қишлоқ жойларда туризмни ривожлантириш имкониятлари.,“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2018 йил 2/2018 (№ 00034) https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/1_Matyakubov.pdf